

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

JAMILOV SHUHRAT FARMON O'G'LI

**LOKOMOTIVLARNING O'ZGARMAS TOK TORTUV ELEKTR
DVIGATELLARINI TEXNIK HOLATINI BAHOLASH VA
ISHONCHLILIGINI OSHIRISH**

**05.08.05 – Temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Jamilov Shuhrat Farmon o‘g‘li

Lokomotivlarning o‘zgaras tok tortuv elektr dvigatellarini texnik holatini baholash va ishonchliligini oshirish..... 3

Жамилов Шухрат Фармон угли

Оценка технического состояния и повышение надежности электродвигателей постоянного тока локомотивов..... 21

Jamilov Shuhrat Farmon o‘g‘li

Assessment of the technical condition and improvement of reliability of electric motors of direct current locomotives..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022. T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

JAMILOV SHUHRAT FARMON O‘G‘LI

**LOKOMOTIVLARNING O‘ZGARMAS TOK TORTUV ELEKTR
DVIGATELLARINI TEXNIK HOLATINI BAHOLASH VA
ISHONCHLILIGINI OSHIRISH**

**05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4955 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamidov Otabek Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pirmatov Nurali Berdiyovich
texnika fanlari doktori, professor

Kurilkin Dmitriy Nikolayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (231-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.V. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Ya.O. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda temir yo‘l transportida lokomotiv tortuv elektr dvigatellarining mavjud konstruksiyalarini takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish dunyoning ixtisoslashgan ilmiy, konstruktorlik va ishlab chiqarish tashkilotlarida rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot va ilmiy markazlar turli xil yuklash rejimlari va tezlik oraliqlarida poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish, lokomotivlarga texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish va lokomotivlarning ta‘mirlararo vaqtini oshirish bilan bog‘liq bir qator masalalarni hal qilmoqdalar. Mavjud lokomotivlarning yetishmasligi va temir yo‘l uchastkalarining quvvati pastligi bilan yuk aylanmasini oshirish uchun lokomotivlar parkini takomillashtirish va innovatsion yechimlar taklif qilish, xususan, lokomotivlarning asosiy tortuv moduli hisoblangan, tortuv elektr dvigatellarning ish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan dastur va uslubiyotlarni joriy etish bo‘yicha yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, magistral va manyovir lokomotivlari parkining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish usullaridan biri bu tortuv elektr dvigatellari texnik holatini baholash va ishonchliligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora tadbirlarni o‘tkazish.

Jahonda tortuv elektr dvigatellarining zamonaviy konstruksiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha turli ilmiy-texnik va texnologik ishlar olib borilmoqda, mavjud tortuv elektr dvigatellaridan samarali foydalanishni tadqiq etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bajarilmoqda. Bu yo‘nalishda, xususan, lokomotiv xo‘jaligiga tegishli lokomotivlarning o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarni texnik holatini baholash katta e‘tiborga loyiqdir. Shu sababli, o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarni eksplutatsiya sharoitlarida texnik holatini aniqlash va ishonchliligini oshirish temir yo‘l transporti oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib, uni hal qilish yangi tortuv elektr dvigatellari va ularning tarkibiy qismlarini sotib olish uchun ajratiladigan budjet valyuta mablag‘larini tejaydi, bu esa mavjud tortuv elektr dvigatellariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash xarajatlarini qisqarishiga olib keladi.

Respublikamizda transportning turli sohalarini yanada rivojlantirish, xususan, temir yo‘l lokomotivlari parkiga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek uni texnik-iqtisodiy xususiyatlari takomillashtirilgan lokomotivlar bilan to‘ldirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-329-son qarorida² “... barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish ..., ... transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish ..., ... transport tizimida “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ...”, hamda “...yo‘lovchi va yuk tashish

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli qarori

xarajatlarini kamaytirish..., ... temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, lokomotiv va vagonlar parkini yangilash ...” kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun, xususan, lokomotivlarning o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari izolatsiya materiallarini dielektrik mustahkamligi, elektr qarshiligi va harorat ko‘rsatkichini tadqiq etish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ularni aniqlash ushbu dvigatellarning texnik holatini baholash imkoniyat beradi va ularning ishonchliligini oshirishni asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 9 avgustdagi “Transport to‘g‘risida” gi O‘RQ-706-sonli va 1999 yil 15 apreldagi “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida” gi 766-I-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli va 2019 yil 1 fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5647-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 maydagi “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4703-sonli va 2023 yil 10 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar va izlanishlar, lokomotivlarda o‘tkazilgan eksperimentlar natijalariga asoslanib, yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va yoqilg‘i uchun xarajatlarni kamaytirish - II. “Enertika, energiya va resurslarni tejash” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Temir yo‘l harakatlanuvchi tarkiblarning tortuv elektr dvigatellarini texnik holatini baholash, ishonchliligini oshirish va zamonaviy mobil diagnostika qilish tizimlarini takomillashtirishga bilan bo‘g‘liq dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi mamlakatlarining universitetlari, ilmiy markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida olib borilmoqda.

Tortuv elektr dvigatellarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish va zamonaviy mobil diagnostika usullari va vositalarini ishlab chiqishga xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar. Jumladan: V.B. Kulakovskiy, G.N. Aleksandrov, A.S. Kurbasov, A.D. Glushchenko, N.A. Rotanova, A.A. Skvortsov, V.A. Vinokurova, N.D. Vaikova, A.S. Serebryakova, V.D. Radchenko, O.D. Goldberg, V.P. Nemukhina, G.K. Gervais, va boshqalarning ilmiy ishlarida tortuv elektr dvigatel chulg‘amlarining izolatsiya materiallarida sodir bo‘ladigan fizik jarayonlarni o‘rganishgan. Lokomotiv tortuv elektr dvigatellarining ishonchliligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri - diagnostika usullari va vositalarini rivojlantirishdir va ko‘plab olimlar o‘z ishlarini bag‘ishlagan.

Mamlakatimizda tortuv harakat tarkiblarining elektr dvigatellarini diagnostika qilish bo‘yicha nazariy hisob-kitob usullari hamda eksperimental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga olimlarimiz salmoqli hissa qo‘shmoqdalar. Jumladan: O.R. Xamidov,, Sh.S. Fayzibayev, S.F. Ablyalimov,

A.T. Djanikulov, N.S. Zayniddinov, O.T. Kasimov va yana bir qator mahalliy olimlarimiz tomonidan ushbu masalalar bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar o'tkazilgan.

Xorijiy va mahalliy tajribaning tahlil shuni ko'rsatadiku, o'zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini baholash va ishonchliligini oshirish maqsadida diagnostika qurilmalarini joriy qilish bo'yicha yangi yechimlarni ishlab chiqish, izolatsiya materiallarini xizmat qilish muddatini aniqlash va ekspluatatsiya sharoitida dvigatellarni harorat ko'rsatkichlarini hisoblash metodikasi va diagnostika qurilmasi orqali harorat ko'rsatkichlarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ilmiy-texnik Kengashi yig'ilishi (29/1-sonli bayonnoma 28.09.18 y.) va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning 2019-yildagi texnik darajasini oshirishning yagona kompleks rejasi"ga (27.12.18 y. №2374-NZ-sonli buyruq) muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida foydalanilayotgan o'zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini baholash orqali ularning ekspluatatsiyadagi samaradorligini va ishonchliligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston temir yo'llarida foydalanilayotgan magistral va manyovr lokomotivlarida foydalanishda bo'lgan tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini aniqlash va nosozliklarini tahlil qilish;

Matlab simulink dasturiy ta'minotida tortuv elektr dvigatellarining harorat ko'rsatkichlarini aniqlash tizimini imitatsion modelini yaratish;

yuqori aniqlikga ega diagnostika usullaridan foydalangan holda tortuv elektr dvigatellaridagi harorat ko'rsatkichlarini aniqlash qurilmasini ishlab chiqish;

ekspluatatsiya sharoitlarida tortuv elektr dvigatellaridagi harorat ko'rsatkichlarini hisoblash metodikasini ishlab chiqish;

tortuv elektr dvigatellaridagi harorat ko'rsatkichlari ta'sirida izolatsiya materiallarining xususiyatlari o'zgarishini tahlil qilish va harorat ko'rsatkichlarini tortuv elektr dvigatellarning xizmat qilish muddatiga bog'liqligini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida lokomotivlarning o'zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida lokomotivlarning o'zgarmas tok tortuv elektr dvigatellarini ishonchliligidir.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarish jarayonida statistika, tahliliy va eksperimental tadqiqod usullaridan foydalanilgan. Ilmiy-tadqiqod davomida lokomotivlar tortuv elektr dvigatellarining joriy texnik holatini baholash bo'yicha nazariy tadqiqotlarida tahliliy usullar, hamda MATLAB zamonaviy muhandislik dasturlaridan foydalanilgan. MATLAB dasturida lokomotiv uchun mo'ljallangan tortuv elektr dvigatellarining harorat ko'rsatkichlarini aniqlash tizimini imitatsion modelini ishlab chiqish asosida yangi diagnostika qurilmasini yaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lokomotiv tortuv elektr dvigatellari izolyatsiya materiallarining degradatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, ularning issiqlik ta'siriga bardoshlilikini tahlil qilish imkonini beruvchi imitatsion model ishlab chiqilgan;

ilk bor yuqori aniqlikdagi harorat datchiklari yordamida o'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari chulg'amlarining harorat ko'rsatkichini aniqlash imkonini beruvchi diagnostika qurilmasi ishlab chiqilgan;

tortuv elektr dvigatellarini issiqlik balansi tenglamalari yordamida materialning qarshilik koeffitsientini e'tiborga olgan holda yakor cho'lg'amlarida ortiqcha yuklanishni hisoblash imkonini beruvchi matematik modeli ishlab chiqilgan;

lokomotivlarning turli ekspluatatsiya sharoitlari va rejimlarida o'zgaras tok tortuv elektr dvigatellariga issiqlik yuklamalarini hisobga olgan holda, ularning texnik holati va ishonchliligini aniqlash imkonini beruvchi takomillashtirilgan metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ Tinchlik lokomotiv deposiga tegishli UzTE16M3 014 raqamli teplovozigiga ilk bora yaratilgan, turli xil ekspluatatsiya sharoitlarida o'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarning texnik holatini diagnostika qilish qurilmasi o'rnatilib, u orqali ularning harorat ko'rsatkichlarini nazorat qilish usullari ishlab chiqilgan;

o'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarning texnik holatini baholashning asosiy mezonlarini aniqlash imkonini beruvchi harorat ko'rsatkichlarni aniqlash orqali dvigatelning texnik holatini baholashning takomillashtirilgan uslubiyoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy tadqiqotlarda zamonaviy raqamli usullardan va muhandislik dasturiy ta'minotlardan, tajriba va sinovlarda sertifikatlangan va kalibrlangan o'lchov vositalaridan foydalanish hamda nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekspluatatsiya davomida, magistral va manyovr lokomotivlarining o'zgaras tok TEDlarining texnik holatini baholashning yangi metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodikada lokomotivlarning ishlash jarayonida yuzaga keladigan texnik nosozliklar va xavflarni oldindan aniqlash, ularni samarali tahlil qilish va kerakli ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun ilmiy asoslangan yondoshuv keltirib o'tilgan. Bundan tashqari TEDlarning harorat ko'rsatkichlarini muntazam ravishda nazorat qilish uchun yangi diagnostika tizimi ishlab chiqildi. Haroratning ortishi TEDlarning ishlash samaradorligini pasaytiradi va uzoq muddatli ekspluatatsiyada jiddiy nosozliklarga olib keladi. Yangi tizim, harorat ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish orqali, nosozliklarning oldini olish va eng kam vaqt ichida texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yangi ishlab chiqilgan diagnostika tizimi yordamida lokomotivlarning texnik holatini tez va samarali baholashga imkon berib, ekspluatatsiya va ta'mirlash ishlarining samaradorligini oshiradi. Ekspluatatsiya davomida yuzaga keladigan texnik muammolarni aniqlash va bartaraf etish jarayonlari soddalashadi, bu esa samarali va arzon texnik xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi. Shuningdek, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish vaqti qisqaradi, bu esa lokomotivlar ishlashining uzluksizligini bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston temir yo‘llarida foydalanishda bo‘lgan magistral va manyovr lokomotivlarning o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarini texnik holatini aniqlash va ishonchligi oshirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

magistral va manyovr lokomotivlarning o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarini turli ekspluatatsiya sharoitlarida harorat ko‘rsatkichlarini hisoblash metodikasi takomillashtirilib “Tinchlik lokomotiv deposi”da ishlab chiqarishga joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 2024 yil 2 dekabrda №4/E1617 ma’lumotnomasi). Hisob-kitob va eksperimental o‘lchovlar natijalari asosida tortuv elektr dvigatellarni xizmat qilish muddati uzaytirilgan.

magistral va manyovr lokomotivlarning o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarni harorat ko‘rsatkichlarini aniqlash diagnostika qurilmasi “Tinchlik lokomotiv deposi” da ishlab chiqarishga joriy etilgan, (O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 2024 yil 12 dekabrda №4/E1617 ma’lumotnomasi). Natijada, magistral lokomotivlarga o‘rnatilgan diagnostika qurilmasi orqali o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellaridagi harorat ko‘rsatkichlarini mashinist brigadalari ko‘rishi, nazorat qilishi va boshqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 3 ta Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasida indekslangan ilmiy anjumanda, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, shu jumladan 4 ta xalqaro va 11 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlar, shu jumladan 3 ta SCOPUS ma’lumotlar bazasida indekslangan ilmiy anjumanlarda e’lon qilingan, 1 ta EHM uchun dasturiy mahsulotlar ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, masalaning holati yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, nazariy va amaliy ahamiyati, ishonchligi asoslangan, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish to‘g‘risida ma’lumot berilgan va shuningdek, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston temir yo‘llarida foydalanilayotgan lokomotivlarning tortuv elektr dvigatellarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari**

tahlili va texnik holatini baholash” deb nomlangan birinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar natijasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ lokomotiv parkida foydalanilayotgan tortuv harakatlanuvchi tarkiblarning katta qismi, ya’ni 82 foizi, o‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari bilan jihozlanganligi aniqlanib, ularning texnik holatiga ta’sir qiluvchi omillar to‘liq yoritib berilgan.

O‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari (TED) temir yo‘l transportida keng qo‘llaniladigan elektr dvigatellardan biri bo‘lib, ularning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday dvigatellar texnik xizmat ko‘rsatish, ishlash muddati, texnik nosozliklarga chidamlilik va energiya samaradorlik kabi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Ularning ekspluatatsion ko‘rsatkichlari bir nechta omillarga asoslanadi.


Buning natijasida ta’mirlash harajatlarini kamaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Belgilangan reja asosida va o‘z vaqtida amalga oshirilishi orqali dvigatellarning ishlash muddatini uzaytirish mumkin, bu esa ortiqcha xarajatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Lokomotivlarni muntazam diagnostika qilish orqali nosozliklar ertaroq bosqichda aniqlanadi va katta avariylarning oldi olinadi, bu esa lokomotivlarning uzoq muddatli foydalanishida muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarining samaradorligini oshirish va harakatlanuvchi tarkibni doimo ishga tayyor holatda ushlab turish, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning lokomotivlarini tortuv elektr dvigatellariga xizmat ko‘rsatish sifati va xavfsizligini oshirishga yordam beradi. Lokomotiv parkidagi o‘zgarmas tokda ishlaydigan TEDlarning ulushi 82 %ni tashkil etishi va bu orqali texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlari yildan-yilga oshib borishi hisobiga ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot izlanishlarini olib borishni taqozo etadi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ lokomotiv parkidagi barcha turdagi TEDlarning tok turi bo‘yicha klassifikatsiyasiga ajratilgan tahlillari va uning diagrammlari 1-rasmda keltirib o‘tilgan.



■ O‘zgaruvchan tokda ishlaydigan TED lar ■ O‘zgarmas tokda ishlaydigan TED lar

1-rasm. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ lokomotiv parkidagi tortuv harakatlanuvchi tarkiblarning TEDlarini soni bo‘yicha tahlili

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ lokomotiv parkidagi manyovr, magistral teplovozzlar va BJI60, BJI80 elektrovozzlarining tortuv elektr dvigatellari o‘zgarma tokda ishlashini inobatga olgan holda uning uzoq muddatli ekspluatatsiya natijasida aniqlangan nosozliklarning tahlil qilishga majbur etadi.



2-rasm. “Tinchlik” lokomotiv deposiga qarashli o‘zgarma tokda ishlovchi TEDlarning 2019-2023 yillarda aniqlangan nosozliklar tahlillari

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Lokomotivlardan foydalanish boshqarmasiga qarashli “Tinchlik” lokomotiv deposida 2019-2023 yillar davomida TEDda uchraydigan barcha nosozliklar tahlillari 2-rasmida keltirib o‘tilgan.

Tortuv elektr dvigatellarning ekspluatatsiyadagi ishonchliligi va xizmat muddati sezilarli darajada chulg‘am izolyatsiya materialining ish haroratiga bog‘liq. Harorat ta’siri, shuningdek, boshqa salbiy omillarning (o‘zgaruvchan termomexanik yuklanishlar, atmosfera namligining mavjudligi va boshqalar) tortuv elektr dvigatellarining ishlash muddatiga ta’sirini kuchaytiradi va joriy ta’mirlash xarajatlarining oshishiga olib keladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, faol qismlari haroratining atigi 8-12° C ga oshishi tortuv elektr dvigatelining xizmat qilish muddatini deyarli yarmiga qisqartirishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zgarma tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari texnik holatini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘zgarma tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarining holatini baholash uchun diagnostika ko‘rsatkichlari va mezonlari, avtomatik diagnostika qilish tizimi va qoldiq xizmat qilish muddatini tadqiq qilinga.

Temir yo‘llarda foydalanishdagi tortuv elektr dvigatelining yaroqliyligi uchun undagi harorat ko‘tarilishini hisobga olgan holda aniqlanadi. Tortuv elektr dvigateli ko‘p qismlardan iborat bo‘lib, ularda ajralib chiqadigan geometrik shakllar, massalar, materiallar va energiya yo‘qotishlari orqali farqlanadi. Turli qismlar

turlicha qiziydi, shuning uchun issiqlik hisob-kitoblari dvigatelning qizish nuqtai nazaridan eng xavfli qismi uchun amalga oshiriladi. Kollektorli tortuv elektr dvigatellar uchun bu qism yakor cho'lg'ami va kamroq miqdorda qo'zg'atish cho'lg'ami, asinxron elektr dvigatellar uchun esa qisqa tushashgan rotorlardagi stator cho'lg'amidir.

Qizish eng qiyin ish sharoitlariga qarab tekshiriladi (eng katta massali poyezdlar qiyin uchashtalarda eng yuqori tezlikda va minimal to'xtash davomiyligi bilan harakat qilganda).


Muammoni soddalashtirish uchun tortuv elektr dvigateli bir xil jism sifatida qaraladi. Atrof-muhitga issiqlik uzatish doimiy va harorat farqining birinchi kuchiga mutanosib ekanligiga ishoniladi. Shunga ko'ra, T tortuv elektr dvigatelining haddan tashqari qizishi uchun asosiy ifoda quyidagicha ifodalanadi

$$\tau = \tau_{\infty} \cdot [1 - e^{-\frac{t}{T}}] + \tau_0 \cdot e^{-\frac{t}{T}}, \quad (1)$$

bu yerda τ_{∞} - qizib ketishdagi o'rnatilgan harorat (issiqlik muvozanati); t - joriy vaqt; e - natural logarifm asosi; T - termik vaqt doimiysi; τ_0 - sovutish paytida qizib ketishning dastlabki harorati.

Harorat egri chizig'idan t ni aniqlash usuli. Bu egri chiziqlar sinov dastgohlarida tortuv elektr dvigatelini sinov natijalari asosida tuzilgan. Doimiy yuklamada (tokda) cho'lg'amlarning harorati ma'lum vaqt oralig'ida o'lchanadi va grafikda chiziladi. Keyin boshqa tok kuchi uchun shunga o'xshash grafiklar tuziladi (3-rasm).

Tortuv elektr dvigateli katta ortiqcha yuklanish bilan ishlaganda va τ^* ga qadar qiziydi, keyin I_1 da ishlaganda uning harorati sovutish qonuniga muvofiq pasayadi. I_1 dagi qizish va sovutish egri chiziqlari barqaror holat qiymatiga intiladi. I_2 va I_3 uchun shunga o'xshash qizish va sovutish egri chiziqlari barqaror harorat ko'tarilishiga $\tau_{\infty 2}$ va $\tau_{\infty 3}$.



3-rasm. Tortuv elektr dvigatelini qizishi va sovutish egri chiziqlari:

I_1, I_2, I_3, I - tok kuchi, t - vaqt, τ_0 - sovutish paytida qizib ketishning dastlabki harorati, 1,2,3,5,6 - belgilangan nuqtalar, τ_1, τ_2, τ_3 - har xil tok kuchlari uchun barqaror harorat qiymatlari, t_1 - dvigatel I_1 tokda ishlagandagi vaqt, t_2 - dvigatel I_2 tokda ishlagandagi vaqt, t_3 - dvigatel I_3 tokda ishlagandagi vaqt, 1-nuqtadan 2-nuqtaga — I_1 tokda ishlash natijasida

qizish jarayoni, 2-nuqtadan 3-nuqtaga - sovutish jarayoni, 3-4 nuqtalar - I_2 tok kuchida yangi barqaror holatda qizish jarayoni, 5-6 nuqtalar - I_3 tok kuchida qizish yoki sovutish jarayonini ifodalaydi.

Buning sababi shundaki, chulgʻamlar t °C harorati atrof-muhit τ_∞ dan yuqori qizib ketganda, hosil boʻlgan barcha issiqlik atrof-muhitga chiqariladi.

$t < \tau_\infty$ da atrof-muhitga kamroq issiqlik chiqariladi, qolgan qismi esa haroratning koʻtarilishiga olib keladi.

Qizish va sovutish jarayonlari yuklama va tok kuchiga bogʻliq. Chiziq yuqoriga qarab oʻsa boshlasa, bu qizish jarayonidir. Chiziq pastga qarab borsa, bu sovutish jarayonidir.

Tortuv elektr dvigatellarining qoldiq muddatini baholash oldindan nosozliklarni oldini olish, ishonchliligini oshirish va tortuv elektr dvigatellarning xizmat qilish muddatini uzaytirishning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu boʻlimda ED-118 A (B) turidag tortuv elektr dvigatellarining chidamliligini baholash uchun matematik modellar va statistik usullardan foydalangan holda harorat xususiyatlariga asoslangan nosozliklarni bashorat qilish usullari oʻrganib chiqildi.

Tortuv elektr dvigatellardan foydalanish davomida sodir boʻladigan jarayon yani haroratni koʻtarilishi natijasida tortuv elektr dvigatellarning izolatsiya qismiga harorat taʼsirida qanday reyaksiyalar sodir boʻlishi, tortuv elektr dvigatellardagi harorati normativ hujjatlarda belgilangan tashqi atrof muhit harorati yaʼni 40°C oshganda tortuv elektr dvigatellarning izolatsiya qismiga qanday taʼsiri borligi va izolatsiya materiallarida ruhsat etilgan issiqlik sinfiga qoʻllanilishi kerak boʻlgan izolatsiya materallarining tarkibi ham tahlil qilingan.

Tortuv elektr dvigatellar ishlash jarayonida qiziydi. Harorat oʻzgarishi har xil boʻlishi mumkin, yaʼni baʼzi elektr dvigatellar kamroq qiziydi, boshqalari esa koʻproq. Elektr dvigatellarning haroratining barqaror qiymati uning validagi yuklanishga bogʻliq. Katta yuklanish bilan vaqt birligida katta miqdorda issiqlik chiqariladi, yaʼni elektrodvigelning barqaror holatidagi harorat yuqoriroq boʻladi. Tortuv elektr dvigatellarining ruxsat etilgan harorati chulgʻamlarning izolyatsiyasi sinfiga bogʻliq. Izolyatsiyaning alohida sinflari uchun yuqorida koʻrsatilgan cheklangan qizish harorati amalda toʻliq qoʻllanilmaydi, chunki tortuv elektr dvigatellari va apparatlardan foydalanishda eng qizigan qismlarning izolyatsiyasi harorati ustidan aniq nazoratni oʻrnatish mumkin emas. Shu sababli, tortuv elektr dvigatellari uchun mavjud standartlar ushbu qismlarning koʻrinishi va mashinada joylashishiga qarab, alohida mashina qismlarining ruxsat etilgan haroratlari uchun pastki chegaralarni belgilaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni taʼkidlash kerakki, izolatsiya bu tortuv elektr dvigatellarning uzoq muddat ishlashini belgilovchi omil hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Oʻzgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarining issiqlik koʻrsatkichlarini aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish va matematik modellashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida tortuv elektr

dvigateli issiqlik almashinuv jarayoni matematik ifodalaniib, algoritm va immitatsion model ishlab chiqish yoritilgan.

Tortuv elektr dvigateling noqulay ish sharoitlari uning shikastlanishiga va noto'g'ri ishlashiga olib keladi. Barcha teplovozlardagi tortuv elektr dvigatellarining nosozliklarini ikki guruhga bo'lish mumkin bo'ladi: birinchi guruhga – eng katta nosozliklar elektr qismlariga zararlanishlar va ikkinchi guruhga mexanik nosozliklar kiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tortuv elektr dvigatellarining nosozliklarining umumiy sonidan, shikastlanish holatlari soni generatorlar va ikki-mashinali agregatlari ulushi 5% va qolganlari tortuv elektr dvigatellarini nosozliklari bilan bog'liq. Ko'pincha tortuv elektr dvigatellarining nosozliklari teplovozlardan foydalanish davomida sodir bo'ladi, bu nosozliklar tufayli tortuv elektr dvigatellari rejadan tashqari ta'mirlash kirishga majbur bo'ladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tortuv elektr dvigatellari bir ishlaymay rejadan tashqari teplovozni ta'mirlash olib keladi. Ushbu nuqsonlarning aksariyati tortuv elektr dvigatellarining tok o'tkazuvchi qismidagi izolyatsiyaning shikastlanishidan iborat.

Bunday nosozliklarning paydo bo'lishining sababi issiqlikka aylantirilgan energiyaning yo'qolishi bo'lib, bu mashinalarning xizmat qilish muddatini qisqartirishga, izolyatsiyani eskirishiga, mikrodarzlar shakllanishiga va hokazolarga olib keladi. Ushbu nuqsonlarning oldini olish uchun tortuv elektr dvigateling tok o'tkazuvchi qismlarining issiqlik holatini real vaqt rejimida kuzatib borish kerak, bu lokomotivlarning o'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarini harorat ko'rsatkichlari orqali texnik holatini baholash qurilmasi yordamida amalga oshirilishi mumkin.


O'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellari, qoida tariqasida, dvigateling asosiy elementlarining harorati (kollektor, cho'tkalar, yakor chulg'amlari, yakorning po'latlari, asosiy va qo'shimcha qutblar) va havo oqimining harorati boshqariladi.

Asosan tortuv elektr dvigateling harorat ko'rsatkichlarini aniqlash teplovozga o'rnatilgan harorat ko'rsatkichlarini aniqlash qurilmasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida, hisoblashning analitik usulini qo'llash kerak. Algoritmini yaratish uchun avvalo uning tuzilishini tuzish kerak. Birinchidan, mashinist nazoratchisining pozitsiyasini, tortuv elektr dvigateling tok qiymatini va birinchi vaqt oralig'i qiymatlarini, teplovozning keyingi diagnostikasi uchun bo'ladigan ko'rsatkichlarini olish imkonini beradi.

Keyingi qadam vaqt oralig'ida tokning boshlang'ich va oxirgi o'rtacha qiymatini hisoblash, barcha vaqt oralig'ida tok o'zgarib turadi va shuning uchun bu o'zgarishni o'rtachasini hisoblash talab qiladi. °C

Keyinchalik, mashinist nazoratchisining pozitsiyasi baholanadi. Chunki uning qiymati interval oxirida nolga teng bo'lsa, u holda teplovoz tortuv rejimida bo'ladi,

tortuv elektr dvigatelidagi harorat ko'rsatkichi o'sishi yoki kamayish jarayonni bildiradi 4-rasm.



4-rasm. Tortuv elektr dvigatelining harorat ko'rsatkichlarini vaqtga bog'liqlik grafigi

Matematik modelga kiritilishi mumkin bo'lgan asosiy formulalar:

Issiqlik tarqalishi tenglamasi: Bu tenglama chulg'am haroratining vaqtga nisbatan o'zgarishini hisoblaydi

$$\frac{dT}{dt} = \frac{k}{m \cdot c} (T_{\max} - T), \quad (2)$$

bu yerda T_{\max} -chulg'am qizishi natijasidagi maksimal harorat, T - chulg'amning joriy harorati, K - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, m – massasi, c – issiqlik sig'imi.

Issiqlik balansi issiqlik uzatish va tarqatishni hisobga olgan holda chulg'amdagi issiqlik energiyasini quyidagi tenglama orqali aniqlash mumkin:

$$Q = m \cdot c \cdot \Delta T, \quad (3)$$


bu yerda Q - issiqlik miqdori, ΔT - harorat o'zgarishi ($T_{\max} - T$).

Chulg'amdagi issiqlik energiyasi Joule-Lens qonuni bo'yicha hisoblanadi:

$$Q = I^2 \cdot R \cdot t, \quad (4)$$

bu yerda I – elektr toki, R – qarshilik, t – vaqt.

Ushbu tadqiqotda MATLAB Simulink dasturiy ta'minoti yordamida tortuv elektr dvigatellarining harorat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun imitatsion model yaratildi 5-rasm. Model yordamida real ishlash sharoitlarini modellashtirish va dvigatelning optimal harorat rejimini aniqlash imkoniyati yaratilgan.



5-rasm. Lokomotivning bitta seksiyasi uchun ishlab chiqilgan immitastion modeli

Izolyatsiyaning eskirishi kimyoviy va jismoniy eskirishning o‘zaro bog‘liq jarayonlari natijasi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Kimyoviy darajada, materialning tuzilishi va tarkibi, uning elektr xususiyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan termik parchalanish va termik-oksidlanishning qaytarilmas jarayonlari sodir bo‘ladi.

Harorat ko‘rsatkichlarini o‘lchash va tahlil qilish dvigatellar texnik xizmatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yuqori harorat dvigatelning samaradorligini pasaytiradi va nosozliklarning kelib chiqish xavfini oshiradi. Shu sababli, haroratni o‘z vaqtida aniqlash va nazorat qilish texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Issiqlik ta‘sirida jarayonlarini o‘rganishga zamonaviy yondashuv kimyoviy reaksiyalarning kinetik qonuniyatlarini izolyatsiya materiallarga nisbatan qo‘llashga asoslangan. Vant-Xoff-Arrhenius tenglamasiga ko‘ra, τ haroratda izolyatsiyaning xizmat qilish muddati ifoda bilan aniqlanadi:

$$D = D_n \exp \left[\frac{E_a}{R} \left(\frac{1}{\tau + 273} \right) - \left(\frac{1}{\tau_{qo'sh} + 273} \right) \right] = D_n \exp \left[-\frac{E_a}{R} \frac{\tau - \tau_{qo'sh}}{(\tau + 273)(\tau_{qo'sh} + 273)} \right], \quad (5)$$

bu yerda D_n - $\tau_{qo'sh}$ haroratda nominal ruxsat etilgan izolyatsiyaning xizmat qilish muddati; E_a – aktivlanish energiyasi, J/mol; $R = 8,317$ - universal gaz doimiysi, J / (deg × mol).

Formula (5) quyidagi shaklga qisqartirilishi mumkin:

$$D = D_n \exp \left(-B \frac{\Delta \tau}{\tau + 273} \right), \quad (6)$$

bu yerda B - o'lchovsiz koeffitsient, bir xil issiqlikka chidamlilik sinfidagi materiallar uchun doimiy (1-jadval); $\Delta\tau = \tau - \tau_{qo'sh}$ - izolyatsiyani qizish haroratining ruxsat etilgan haroratdan oshib ketishi.


1-jadval

Izolyatsiya sinflari uchun B koeffitsientining qiymatlari

Izolatsiya sinfi	A	E	B	F	H
B	25,1	25,1	25,3	29,7	34,2

Izolyatsiyaning eskirishi kimyoviy va jismoniy eskirishning o'zaro bog'liq jarayonlari natijasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Kimyoviy darajada, materialning tuzilishi va tarkibi, uning elektr xususiyatlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan termik parchalanish va termik-oksidlanishning qaytarilmas jarayonlari sodir bo'ladi.

6-rasmda har xil sinfdagi izolyatsiya materiallar uchun nisbiy xizmat muddatining harorat ko'tarilishiga bog'liqligi ko'rsatilgan.




6-rasm. Izolyatsiya materiallarning nisbiy xizmat qilish muddatiga harorat o'zgarishini bog'liqligi

Ushbu bo'limdagi tahlillar va yechimlar tortuv elektr dvigatellari uchun samarali harorat monitoringi va boshqaruv tizimini yaratishga qaratilgan. Taklif etilgan model va algoritmlar dvigatellarning xizmat muddatini uzaytirishga, texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga va xavfsiz ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyaning rivojlanishi va MATLAB Simulink kabi zamonaviy vositalardan foydalanish dvigatellarning harorat ko'rsatkichlarini aniq nazorat qilish va baholashga imkon beradi. Bu esa lokomotivlarning ishonchliligini oshirish va ortiqcha issiqlikdan kelib chiqadigan nosozliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “O‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarini harorat ko‘rsatkichlarini aniqlashning tajribaviy sinov tadqiqotlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobida diagnostika qurilmasi ishlab chiqilib, turli ekspluatatsiya sharoitlarida harorat ko‘rsatkichini aniqlash orqali tortuv elektr dvigatellarning texnik holatini baholash metodikasi takomillashtirilib, tajriba tadqiqotlari amalga oshirilgan.

Lokomotivlarni texnik holatini baholash uning qismlarini ta‘mirlash turlari xarajatlarini kamaytirish eng asosiy mezonlardan biridir bu esa temir yo‘l transportida sarf-xarajatlarni kamaytirishga va yuk va yo‘lovchi tashish tan narxini pasaytirishga imkon beradi. Lokomotivni texnik holatini uzliksiz nazorat qilish uchun diagnostika qurilmalari va metodlardan foydalanish orqali ko‘zda tutilgan natijaga erishish mumkin. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning lokomotivlardan foydalanish boshqarmasining asosiy vazifalaridan biri lokomotivlarni ta‘mirlash xarajatlariga ketadigan sarf-xarajatlarni va import mahsulotlarini kamaytirish hisobiga mahalliyashtirish, yani lokomotivlarga nosozlik kelib chiqishini oldindan baholay olish, buning uchun zamonaviy diagnostika qurilmalaridan foydalangan holda erishish mumkin. Zamonaviy diagnostika qurilmalaridan foydalanish lokomotivlarni soz holatda ishlashini ta‘minlaydi.

Tortuv elektr dvigatellarini issiqlik holatini aniqlash orqali diagnostika qilish qurilmasi quydagi sxema yordamida amalga oshirildi (7-rasm).



7-rasm. O‘zgarmas tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarni diagnostika qilish qurilmasini sxemasi: 1,2,3,4,5,6 -mos ravishda lokomotivning bitta seksiyasida tortuv elektr dvigatellariga o‘rnatilgan harorat datchiklari; SK- signal kuchaytirgich; MK-mikrokontroller; DC- o‘zgarmas tok manbai; KB- ko‘rsatish blogi

Arduino sxemasi asosida tortuv elektr dvigatellarning harorat ko‘rsatkichlari orqali diagnostika usuli mobil diagnostika moslamasi ishlab chiqilgan, bu esa mobil nazoratning tavsiya etilgan usulidan foydalanishga imkon beradi.

Natijada, issiqlik ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini baholashning mezonlari asoslanadi. Tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini baholash quyidagicha olib boriladi: tortuv elektr dvigatellar ishlayotganda ularning harorati ko‘tariladi, shundan so‘ng issiqlik ta‘siri

va dielektrik izolyatsiyalarning qoldiq resursni taxmin qilish mumkin. Shu bilan birga, asosiy maqsad tortuv elektr dvigaellarning ishdan chiqishida uning yakori va qutblarini ishdan chiqishini oldini olish uchun haroratni o'z vaqtida aniqlashdan iborat.

Ixtironing vazifasi uzoq muddatli ekspluatatsuya davomida tortuv elektr dvigatellarining ishonchliligi va ekspluatatsiya samaradorligini oshirishdir. Yuqorida qo'yilgan vazifa 8-rasmda tortuv elektr dvigatellarning texnik holatini uning harorat ko'rsatkichlarini aniqlash orqali baholash bilan hal qilinadi.

a



b



8-rasm. Tortuv elektr dvigatellarining texnik holatining diagnostikasi:

a - UzTE16M №014 teplovozining tortuv elektr dvigatellarini haroratini ko'rsatuvchi display; *b* – diagnostika kompleksi displeyining harorat ko'rsatkichi

Tortuv elektr dvigatelning qizishini hisoblash ancha murakkab masala hisoblanadi. Uning yechimi ko'p jihatdan konstruksiyaning o'ziga xos xususiyatlari va muayyan mashinaning xarakteristikalariga bog'liq.

O'tkazilgan tadqiqot va sinovlar natijasida tortuv elektr dvigatellarining haroratini doimiy ravishda nazorat qiluvchi diagnostika tizimining samaradorligi isbotlandi. Qurilma yordamida dvigatelning qizib ketishini oldindan aniqlash va tegishli choralarni ko'rish imkoniyati yaratildi. Bu nafaqat lokomotivning ishonchliligini oshirish, balki ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish, xizmat muddatini uzaytirish va favqulodda nosozliklarning oldini olishga xizmat qildi.

Tizimning ishlash jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar texnik xizmat ko'rsatish strategiyasini takomillashtirishga yordam berdi. Diagnostika tizimidan olingan signal ma'lumotlari asosida dvigatelning holatini real vaqtda kuzatish va mashinistlarga xavfli harorat sharoitlarini oldindan bildirish imkoniyati yaratildi. Bu texnologik yondashuv lokomotiv parkini yanada samarali boshqarish va modernizatsiya qilish uchun katta qadam bo'lib xizmat qiladi.

Bunday tizimlardan foydalanish bo'lajak texnik xizmat ko'rsatish texnologiyalarining asosi bo'lib, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan zamonaviy diagnostika metodlarini qo'llash orqali temir yo'l transportida ishonch va samaradorlikni yanada oshirishga imkon beradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida magistral va manyovr lokomotivlarning o'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarini texnik holatini baholash va ishonchligini oshirishga qaratilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi, shu bilan birga:

1. O'zbekiston temir yo'llarida o'zgaras tokda ishlaydigan tortuv elektr dvigatellarining asosiy nosozliklari tahlil qilindi. Ularning ishlash samaradorligini pasaytiruvchi muhim omillar sifatida izolyatsiya qarshiligining pasayishi, mexanik nosozliklar va harorat ta'sirida yuzaga keladigan muammolar belgilab olindi. Mavjud diagnostika usullari o'rganilib, yangi texnologiyalar bilan takomillashtirish talab etilishi aniqlandi.

2. MATLAB Simulink dasturiy ta'minotida TEDlarning harorat ko'rsatkichlarini aniqlash tizimining imitatsion modeli ishlab chiqildi. Ushbu model izolyatsiya materiallarining eskirish jarayonlarini oldindan baholash va diagnostika natijalarini aniqlik bilan olish imkonini beradi.

3. Harorat ko'rsatkichlarini aniq va real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi yangi diagnostika qurilmasi ishlab chiqildi. Qurilma tajriba sinov stansiyasida va ekspluatatsion sinovlardan o'tkazilib, uning yuqori aniqlikda ishlashi tasdiqlandi.

4. Harorat ko'rsatkichlariga asoslangan holda izolyatsiya materiallarining eskirish jarayonlarini baholash metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika orqali ekspluatatsion nosozliklarni oldindan aniqlash va texnik xizmat muddatlarini optimallashtirish imkoniyati yaratildi.

5. Tinchlik lokomotiv deposida o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar asosida diagnostika uskunalari va harorat ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasi ekspluatatsion sharoitlarda sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalari diagnostika tizimlarining samaradorligini tasdiqladi va ularni keng qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

6. Diagnostikasi qilish orqali TEDning texnik xizmat ko'rsatish intervalini optimallashtirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. TED larning ishlatiladigan izolatsiya sinfini H klass izolatsiya sinfiga o'tkazish taklifi lokomotivlarni ta'mirlash korxonalariga berildi.

Shu bois, bajarilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan yangi texnik yechimlar barcha ekspluatatsion ish rejimlarida tortuv elektr dvigatellarning harorat ko'rsatkichlarini yuqori aniqlik bilan o'lchash orqali ishonchlikni oshirish va asosiy, yordamchi qutblar va yakorlarning shikastlanishi tufayli lokomotivlarning ishdan chiqishini oldini olish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЖАМИЛОВ ШУХРАТ ФАРМОН УГЛИ

**ОЦЕНКА ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ И ПОВЫШЕНИЕ
НАДЕЖНОСТИ ЭЛЕКТРОДВИГАТЕЛЕЙ ПОСТОЯННОГО ТОКА
ЛОКОМОТИВОВ**

05.08.05 – Подвижной состав железных дорог, тяга поездов и электрификация

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.3.PhD/T4955.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хамидов Отабек Рустамович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Пирматов Нурали Бердиярович
доктор технических наук, профессор

Курилкин Дмитрий Николаевич
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Защита диссертации состоится _____ 2025 г. ____ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.07 при Ташкентском государственном транспортном университете. Адрес: 100167, Ташкент, Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Ташкентском государственном транспортном университете (регистрационный номер – 231). Адрес: 100167, Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан _____ 2025 года.
(протокол реестра № _____ от _____ 2025 года).

Р.В. Рахимов

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Я.О. Рузметов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Р.М. Мирсаатов

Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется совершенствованию существующих конструкций тяговых электродвигателей локомотивов на железнодорожном транспорте и созданию новых. Решение этих задач является одним из основных направлений развития в специализированных научных, конструкторских и производственных организациях мира. В настоящее время в развитых странах научно-исследовательские и научные центры решают ряд вопросов, связанных с повышением безопасности движения поездов при различных режимах нагрузки и диапазонах скоростей, снижением затрат на техническое обслуживание локомотивов и увеличением межремонтного периода локомотивов. Необходимо разработать новые направления исследований по совершенствованию парка локомотивов и предложению инновационных решений для увеличения грузооборота при нехватке существующих локомотивов и низкой мощности железнодорожных участков, в частности, по внедрению программ и методик, направленных на улучшение работы тяговых электродвигателей, являющихся основным тяговым модулем локомотивов. Вместе с тем, одним из способов улучшения технико-экономических показателей и эффективного использования парка магистральных и маневровых локомотивов является проведение масштабных мероприятий по оценке технического состояния и повышению надежности тяговых электродвигателей.

В мире ведутся различные научно-технические и технологические работы по разработке и совершенствованию современных конструкций тяговых электродвигателей, реализуются комплексные мероприятия по исследованию эффективного использования существующих тяговых электродвигателей. В этом направлении, в частности, большое внимание заслуживает оценка технического состояния тяговых электродвигателей, работающих на постоянном токе локомотивов, относящихся к локомотивному хозяйству. Поэтому определение технического состояния и повышение надежности тяговых электродвигателей постоянного тока в условиях эксплуатации является одной из важных задач, стоящих перед железнодорожным транспортом, решение которой позволит сэкономить бюджетные валютные средства, выделяемые на приобретение новых тяговых электродвигателей и их компонентов, что приведет к сокращению затрат на техническое обслуживание и ремонт существующих тяговых электродвигателей.

В нашей республике реализуется ряд мер по дальнейшему развитию различных отраслей транспорта, в частности, организации технического обслуживания и эффективного использования парка железнодорожных локомотивов, а также пополнению его локомотивами с улучшенными технико-экономическими характеристиками. В Стратегии развития Нового

